

Qobiliyatni aniqlash so'rovnomasi

30-yanvar kuni institut psixologi M. K. Muxamedova YERB fakulteti 1-kurs talabalaridan G.Yu. Ayzenkning 80 ta savoldan iborat qobiliyatni aniqlashga mo'ljallangan so'rovnoma o'tkazdi. Fakultet dekani Sh. Norbaev talabalarga so'rovnoma orqali ishtirokchilarning qobiliyatlari va ularning qiziqish yo'nalishlari aniqlanib kerakli to'garaklarga jalb etish mumkinligi to'g'risida so'z yuritdi va sidqidildan barcha talabalar so'rovnomada faol ishtirok etishlari kerakligini aytib o'tdi. So'rovnomani o'tkazishda institut psixologi M.K. Muxamedovaga barcha fakultet rahbarlari, jumladan Sayfiddin Sharipov, Hurriyat Eshovalar yaqindan yordam berishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati